

**IPOTEKA BOZORIDA ESKROU TIZIMINI
JORIY ETISNING AFZALLIKLARI**

*Atajanov Sherali Muratovich
Bank-Moliya akademiyasi magistranti*

Mamlakatimizda zamonaviy uy-joylar qurish ko‘lamini hamda ipoteka mahsulotlari turlarini kengaytirib borish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu sohadagi islohotlar aholining turmush darajasini yanada yaxshilashga, urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishiga va pirovardida iqtisodiyotning o‘sishiga xizmat qiladi.

Jumladan, so‘nggi 5 yilda umumiy maydoni 21,7 million kv. m bo‘lgan ko‘p kvartirali uy-joylar barpo etilib, aholining uy-joy sotib olishiga ko‘maklashish uchun 67 trillion so‘mlik ipoteka kreditlari ajratildi hamda ushbu maqsadlarga Davlat byudjetidan 44 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Daromadi yuqori bo‘lmagan 64 mingdan ortiq fuqaroga 3,5 trillion so‘mdan ortiq subsidiya mablag‘lari to‘lab berildi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda aholi soni yiliga qariyb 800 ming nafarga, yangi oilalar soni esa 300 mingtaga ortayotgani uy-joyga bo‘lgan talabni qondirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, respublikadagi ko‘p kvartirali uy-joy fondining qariyb 40 foizini tashkil etayotgan 2-3 qavatli uylar o‘rniga, yuqoriga (vertikal) o‘stirish tamoyili asosida ijtimoiy soha ob‘ektlari va yashil maydonlarga ega zamonaviy uy-joylar qurish uchun etarlicha imkoniyatlar mavjud.

Shunga ko‘ra, hududlarda uy-joylarni urbanizatsiya va renovatsiya tamoyillariga muvofiq qurish ko‘lamini kengaytirish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etishni jadallashtirish, ipotekani moliyaviy resurslar bilan ta’minalashda kapital bozorining rolini oshirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishni davom ettirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda uy-joy qurilishi sohasini uy-joylarni loyihalashtirishdan tortib, foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan bosqichlarda kompleks tartibga solish, uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda turar va noturar joy ob‘ektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash qator qonun va farmonlar chiqarilgan bo‘lib bularning barchasi aholiga ipoteka kreditlarini tez va qulay foizlarga ajratishda xizmat qiladi.

Uy-joy inson hayotining uzviy va ajralmas bir qismi bo‘lib, u jamiyatda erkin hayot kechirishning garovidir. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har bir shaxsning uy-joyga ega bo‘lish haqidagi huquqlari kuchaytirilib, uy-joyga bo‘lgan

huquqning amalga oshirilishi davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab qo‘yildi.

Davlat, o‘z navbatida, uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun turli siyosat va mexanizmlar ishlab chiqishi, agar shaxsning uy-joyga bo‘lgan huquqi buzilsa, ularni himoya qilish va tiklash choralarini ko‘rib borishi haqidagi bir qator yangi normalar aks ettirildi.

Bugungi kunda aholining ijtimoiy himoyalanmagan va kam ta’minlangan toifalarining uy-joy huquqlarini kafolatlashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, O‘zbekistonda uy-joy siyosati, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va aholiga qulay shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Maqsad bitta — aholini arzon uy-joylar bilan ta’minlash va hayotdan rozi qilish.

Davlat tomonidan uy-joy sotib olish va uy-joy bozorini qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarga bu borada yengilliklar yaratishga qaratilayotgan chora-tadbirlar fuqarolarning uy-joyga bo‘lgan huquqini amalga oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ipoteka krediti shartlarining soddalashtirishi, uy-joy sotib olish uchun subsidiyalar ajratilishi, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni rag‘batlantirish maqsadida, qurilish resurslarini arzonlashtirilgan narxlarda yetkazib berilishi, soliq imtiyozlari qo‘llanishi va aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, shubhasiz, uy-joyga muhtoj aholi uchun arzon va qulay narxlarda uy-joy sotib olish imkonini yaratdi.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan tizimli ishlarga qaramay, talab ko‘pligidan foydalanib, ba’zi holatlarda sohada insofsiz biznes yuritayotgan ayrim tadbirkorlar uchrayotgani kishini o‘ylantiradi. Boisi ular o‘z manfaatlarini o‘ylab, iste’molchilarga har xil asossiz vajlarni keltirib, uy-joylarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirmay kelayotgan holatlar hamon kuzatilmoqda. To‘lov tizimi tartibga solinmagani, raqamlashtirish va ochiq-oshkorlik yo‘qligi bunga yo‘l ochib berayotgan asosiy sabablardan biridir.

Buning natijasida yangi uylarni olmoqchi bo‘lgan odamlar pulini bank orqali emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri quruvchiga berayotgani uchun bu mablag‘lar “soya”da qolayapti. Ko‘p hollarda esa uylarni topshirish muddati kechikib, aholi to‘lagan pullar “muzlab” turibdi. Ulushdorlik shartnomalari ham hech qayerda ro‘yxatga olinmay, faqat quruvchining manfaatiga xizmat qilmoqda.

Kuni kecha davlatimiz rahbari ishtirokida kun tartibidagi ushbu masala batafsil muhokama qilinib, uy-joy sotib olishda aholi mablag‘larini kafolatlaydigan “escrow” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Endi buyurtmachi va tijorat banki o‘rtasida tuziladigan shartnomaga asosan, har bir qurilish inshooti bo‘yicha “escrow” hisobvarag‘i ochilishi ushbu sohadagi

muammolar yechimiga qaratilgan juda samarali va oqilona yechim bo‘lib, bu yuzaga kelayotgan masalalarni bartaraf etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ko‘chmas mulk uchun kelishilgan mablag‘lar ushbu hisobvaraq orqali amalga oshiriladi. Unda yig‘iladigan mablag‘lar asosida tijorat banklari buyurtmachiga pasaytirilgan foizda kredit taqdim etadi. Qurilish bitgach, xaridorning hisobvarag‘idagi pul developer tashkilotga o‘tkaziladi.

Aytish joizki, “escrow” tizimi o‘zining xavfsizligi, ishonchni ta’minlashi va qonuniy himoya mexanizmlari bilan birgalikda ko‘plab afzalliklarga ega. Masalan, tizim taraflar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirishga yordam beradi. Ya’ni, xaridor tovar yoki xizmatni sotib olishdan oldin pulni escrow-agentga o‘tkazadi va pulning sotuvchiga o‘tkazilishi faqat shartlar bajarilsa, amalga oshadi. Bunday holatda har ikki tomon ham o‘z manfaatlarini himoya qilinishiga erishadi. Quruvchi o‘z majburiyatini bajarmagan taqdirda, bu pul egasiga qaytarib beriladi. Bu esa firibgarlik holatlarini oldini oladi.

Umuman olganda, “escrow” tizimi moliyaviy va huquqiy xavflarni kamaytirish, ishonchni ta’minlash va taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimning afzalligi tomonlar o‘rtasidagi ishonchni ta’minlash, har ikki tarafning manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy munosabatlarni xavfsiz, aniq va samarali amalga oshirishni ta’minlaydi.

Eskrou-hisobvaraq (qurilish sohasida) — qurilayotgan uydagi kvartirani sotib oluvchi va quruvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan maxsus bank hisobvarag‘i.

Masalan, xaridor qurilayotgan uydan kvartira sotib olmoqchi. Pulni quruvchiga darhol berish o‘rniga, u uni bankdagi maxsus hisob raqamiga qo‘yadi — bu eskrou-hisob raqami. Uy qurilmaguncha quruvchi bu pullardan foydalana olmaydi. Qurilish tugab, xonardon xaridorga topshirilgach, bank pulni quruvchiga o‘tkazadi. Agar quruvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan bo‘lsa — pul xaridorga qaytariladi.

2025-yilning 1-iyuldan boshlab ulushli qurilishda faqat kadastr organlarida ro‘yxatdan o‘tgan notarial tasdiqlangan shartnoma asosida ishtirok etish mumkin.

Shu sanadan boshlab eskrou tizimi kuchga kiradi. Bu tizim ulushdor, ya’ni uy-joy sotib olish istagidagi xaridorning huquqlarini to‘liq himoyalab, to‘lov pullari ishonchli saqlanishini kafolatlaydi.

Endilikda xaridorning mablag‘lari quruvchiga emas, balki bankdagi maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi.

Shartnomaga ko‘ra, quruvchi qurilishni o‘z vaqtida yakunlash majburiyatini oladi, bank esa ishlarning borishini nazorat qiladi, ulushdorning mablag‘larini to‘playdi va loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshiradi.

Barcha jarayonlarni monitoring qilish uchun «Shaffof qurilish» milliy tizimi doirasida shaffof elektron platforma yaratilmoqda. U ham 1 iyuldan ish boshlaydi.

«Platformada ro‘yxatdan o‘tmasdan turib, quruvchi aholi mablag‘larini jalg qila olmaydi. Elektron platformada kuruvchi kompaniya va ob’ekt haqidagi barcha ma’lumotlar, xususan, ob’ektning loyiha bo‘yicha joylashgan aniq manzili, qavatlari, kirish yo‘lklari, qolaversa, kompaniyaning loyihaviy hujjatlari, ijobjiy ekspertiza xulosasi, kурilish boshlanadigan sana va foydalanishga topshirish muddati kabi ma’lumotlar jamlab boriladi» — S.Usmonov ta’kidlagan.

Bundan tashqari, uning so‘zlariga ko‘ra, kompaniyaning avvalgi loyihalari, ruxsatnomalar mavjudligi va reytingi haqidagi ma’lumotlar potentsial xaridorlar uchun ochiq bo‘ladi. Bu ishonchli developerlar bozorini shakllantirishga yordam beradi va investitsiyalar xavfsizligini ta’minlaydi.

Uy-joy narxining oshishi mumkinligi haqidagi xavotirlarga javob berar ekan, S.Usmonov shunday dedi:

«Eskrou-hisobvaraqlardagi jamlangan mablag‘lar ko‘payishi natijasida developer tashkilotlariga loyihaviy moliyalashtirish doirasida amaldagi stavkalarga nisbatan ancha pastroq stavkada mablag‘lar ajratiladi. Bu esa eskrou tizimi joriy etilgach yangi uy-joylarning narxi keskin oshib ketadi degan ma’lumotlarni inkor etadi».

Uning qo‘srimcha qilishicha, developer tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, xaridor o‘z pullarini to‘liq hajmda qaytarib oladi.

«Quruvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, mablag‘lar xaridorga to‘liq hajmda qaytariladi. Ya’ni, agar uy qurib bitkazilmasa, xaridor zarar ko‘rmaydi — u bankdagi hisob raqamiga qo‘ygan pullarini muammosiz qaytarib oladi,» — deya ishontirdi Qurilish vazirligi vakili.

Yangi tartibga ko‘ra, xaridor shartnama tuzib, uni kadastr ro‘yxatidan o‘tkazgach, qurilish tugaguniga qadar o‘z ulushini tasarruf etishi — had’ya, sotuv yoki vasiyatnama orqali topshirishi mumkin bo‘ladi.

«1 iyuldan boshlab quruvchi va xaridor o‘rtasidagi bitimlarning shakli va mazmuni butunlay o‘zgaradi. 2025 yil oxirigacha eskrou tizimida ishtirot etish ixtiyoriy bo‘lib qoladi, 2026 yil 1 yanvardan esa majburiy bo‘ladi», — deya xulosa qildi S.Usmonov.

Commonwealth Partnership Uzbekistan tahliliy guruhi rahbari Aleksey Letunovskiy Gazeta’ga ushbu yangilik qurilish narxiga qanday ta’sir qilishini tushuntirgandi. U quruvchilar uchun kreditlar bo‘yicha yuqori foiz stavkalariga ishora qildi, bu esa uy-joy narxiga ta’sir qilishi mumkin.

«Aslida, kreditlash qiymati eskrou-hisobni to‘ldirishga bog‘liq bo‘ladi: unda mablag‘lar qanchalik ko‘p bo‘lsa, pul jalb qilish qiymati shunchalik past bo‘ladi. Kreditlash qiymatiga foiz stavkasidan tashqari sug‘urta va boshqa yig‘imlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Birgalikda bu kvadrat metrning narxiga oshish tomonga ta’sir qiladi. Biroq, asosiy maqsad, ya’ni ulushdorlarni himoya qilish haqiqatan ham amalga oshiriladi», — dedi u.

Ekspertning ogohlantirishicha, xaridorlar uchun quruvchining o‘z majburiyatlarini bajarmasligi ham xavf tug‘diradi. Xususan, bankda 2–3 yil saqlangandan so‘ng mijozga qaytariladigan mablag‘lar infliyatsiyaga uchraydi.

«Eskrou hisobvaraqlarining klassik tushunchasi — bu xaridorlarning pullari saqlanadigan seyf bo‘lib, hech kim ushbu mablag‘larni tasarruf etishga haqli emas, bu esa banklar (qisman) yoki quruvchilar (to‘liq) bankrot bo‘lgan taqdirda ularning qaytarilishini kafolatlaydi. Bir tomonidan, bu shubhasiz afzallik — pullar seyfda yotadi. Biroq, aynan shu erda infliyatsiya ta’sir qiladi — 2–3 yildan keyin xuddi shu narxda kvartira sotib olish imkonsiz bo‘ladi», — dedi u.

Xulosa qilib aytish joizki, uy-joy qurilishi daromadli bizneslardan biri. Qolaversa, yurtimizda aholi soni tobora ko‘payishi hisobiga yangi turar joylarga talab oshyapti. Buni qoplash uchun investorlar, quruvchi kompaniyalarga qulay sharoit, imtiyozlar berilyapti. Faqat bundan to‘g‘ri foydalanish, odamlarga manfaatli takliflar berish insofdan bo‘ladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yilning o‘zida 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2044 ta ko‘p qavatli uy barpo etildi. Buning ortidan pudratchilar, boshqaruv va servis, qurilish materiallari, transport kabi sohalarda 350 ming odam ishli bo‘ldi. Mebel, elekrotexnika, to‘qimachilik, qurilish materiallari sohalarida qo‘srimcha 11 trilion so‘mlik bozor paydo bo‘ldi.

Demak, eskrou tizimini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad faqat xaridorlar manfaatlarini himoya qilishdangina iborat emas. Agar shunday bo‘lsa, uy-joy qurilishi bozoridagi tadbirkorlarning hafsalasi pir bo‘lib, sohadan uzoqlashishi mumkin. Bundan esa hech kimga manfaatdorlik yo‘q. Aksincha, yangi tizimni to‘liq ishga tushirish orqali developerlar (bir vaqtning o‘zida investor, loyihachi, quruvchi kabi vazifalarni bajaruvchi) ishini ham engillashtirish nazarda tutilgan. Masalan, eskrou tizimi developerlarga hoziridan pastroq stavkada mablag‘ jalb qilish imkonini beradi. Quruvchi tashkilotlar qurilishni boshlaganidan yakunlagunicha, lekin ko‘pi bilan 12 oy davomida er solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Biroq ob’ekt muddatida topshirilmasa, developer er solig‘ini 2 karra miqdorda to‘laydi.

Endi quruvchilarga mablag‘larni faqat eskrou orqali jalb qilishga ruxsat etiladi. Bunda kompaniya ob’ektning 30 foizini o‘z mablag‘lari, 70 foizini eskrou hisobi ochilgan bank kreditidan quradi. Ammo bankda ochilgan eskrou hisobvarag‘idagi pullar qurilishga yo‘naltirilmaydi. Ob’ekt to‘laligicha tadbirkor va bank krediti hisobiga quriladi. Tijorat banki hisobraqamda turgan kafolatli pullar evaziga quruvchiga arzonroq foizda kredit ajratadi.

Qurilish bitib, xaridor xonadonni qabul qilib olgach, uning bank hisobvarag‘idagi pul developer tashkilotga o‘tkaziladi yoki kreditni so‘ndirish uchun echib olinadi. Quruvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda bu pul egasiga 6 oydan keyin

qaytarib beriladi. Ya’ni uy bitmay qolsa, xaridor kuyib qolmaydi, bankka qo‘ygan pullarini muammosiz qaytarib oladi.

— O‘zbekistonda eskrou tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlanayotgani quvonarli. Buni bir necha yil oldin tasavvur ham qila olmasdik. Jahon tajribasida qurilish oldi-berdilari aynan shunday tizim asosida bo‘ladi va bu sohaga zamонавиy mexanizmlar kirib kelayotganidan dalolat. Turar joy qurish doim jiddiy masala va u nazoratda bo‘lishi kerak. Bu xoh sifat, xoh shartnomalar yoki to‘lovlar masalasida bo‘lsin. Shu orqali qurilish bozorida sog‘lom raqobat shakllanib, kompaniyalar xaridorlar ishonchini qozonish uchun o‘z ustida ishlay boshlaydi. Yurtimizda eskrou tizimini rivojlantirishga 1 milliard dollar va xal-qaro moliyaviy institutlar mablag‘lari hisobidan 310 million dollar jalb etilayotgani ham bejiz emas. Bu yaqin yillarda, albatta, ijobiy natijasini beradi.

Yangi tizim bilan fuqarolarning uy-joy uchun to‘lagan pullari har tomonlama himoyalanadi. Xususan, yuqoridagi farmon bilan eskrou hisobvarag‘iga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini to‘xtatib qo‘yish yoki hisobdan chiqarish taqiqlab qo‘yilgan. Hatto ulushdorning ayrim sabablarga ko‘ra, Majburiy ijro byurosidan qarzi bo‘lib qolgan taqdirda ham eskrou hisobvarag‘idagi mablag‘lariga tegilmaydi. Bu pullar faqat ulush kiritilgan uy-joy bitgach, fuqaro tanlagan xonadon xaridiga yo‘naltiriladi.

Yana bir afzalligi, ulushdor o‘z ulushini hali uy bitmay turib mulk sifatida sotib yuborishi ham mumkin. Natijada hali kadastri chiqmagan uylarning ham ikkilamchi →bozori paydo bo‘ladi. Ulush sotilgan taqdirda developer va bankning yangi ulushdor oldidagi majburiyatlari saqlanib qolaveradi.

Shunday qilib, joriy yil 1 iyuldan boshlab ulush kiritish asosidagi qurilishlarda quruvchi va xaridor o‘rtasidagi oldi-berdining shakli va mazmuni o‘zgardi. Mazkur tartib yil oxirigacha ixtiyoriy bo‘ladi, 2026 yil 1 yanvardan esa qurilishda mablag‘ni jalb qilish faqat eskrou hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda yangi uylarni belgilangan muddatlarda egalariga topshirish va aholi to‘lagan pullar muzlab qolmasligi to‘liq yangi tizim nazoratiga o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan

yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori, PQ-4586 05.02.2020. <https://lex.uz/docs/-4726130>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5886 28.11.2019. <https://lex.uz/docs/-4637331>

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, PQ-4464 20.09.2019.<https://lex.uz/docs/-4523181>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5715 13.05.2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4337770>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5611 05.01.2019. <https://lex.uz/docs/-4143188>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5577 14.11.2018. <https://lex.uz/ru/docs/-4060063>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-5392 02.04.2018. <https://lex.uz/docs/-3605171>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xom ashyo turlari bilan barqaror ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, PQ-3479 17.01.2018. <https://lex.uz/docs/-3509696>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, PQ-3379 08.11.2017. <https://lex.uz/docs/-3405580>

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida «namunaviy loyihamalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi yuzasidan qishloq massivlarida muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish (2-bosqich)» loyihasini amalga oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, VMQ-722 26.12.2022. <https://lex.uz/uz/docs/-6328419>

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, VMQ-601 14.10.2022. <https://lex.uz/docs/-6238561>

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida yangi barpo etilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarini fuqarolari sotib olish huquqiga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, VMQ-384 13.07.2022. <https://lex.uz/ru/docs/-6106940>

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minalash hamda toshkent shahrida boshpanasiz, og‘ir tur mush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, VMQ-737 06.12.2021. <https://lex.uz/docs/-5760624>

14. Internet saytlari va ma’lumotlaridan foydalanildi.